

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**KASBIY TA'LIM FAKULTETI**

# **REFERAT**

**Mavzu: Yog'och o'ymakorligi tarixi, maktablari, ustalar va  
ularning ijodiy faoliyati**

**Bajardi:**

**Shodmonov O'tkir**

**Tekshirdi:**

**o'qit. A. Gadauev**

**Samarqand 2017**

## **Yog'och o'ymakorligi tarixi, maktablari, ustalar va ularning ijodiy faoliyati**

1. Amaliy san'atning tarixiy rivojlanish jarayoni,
2. Temuriylar davri Yog'och uimakorligi san'ati.
3. Yog'och o'ymakorligining asrimizgacha bulgan rivoji.
4. Yog'och uimakorligi maktablari.
5. Yog'och uimakorligi ustalarining xayoti va faoliyati.

Amaliy san'atning tarixiy kelib chiqishi insoniyatning bolalik davriga borib taqaladi. Bashariyat ulgayib borgan sari amaliy san'at xam yuksala bordi, Yashash uchun kurash mavjud ekan, yaxshi yashash uchun extiyoj kuchaiib borish jarayonida qul mex,natidan akuliy mexnat ajralib chiqa boshladi. Ov qurollari, uy-ro'zgor buyumlariga bulgan extiyoj kuchaiib bordi. Avvalo tosh uimakorligi, suyak o'ymakorligi, keyinchalik esa Yog'och uimakorligi xam sekin astalik bilan o'z rivojini topdi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy tarakdayotda katta o'zgarishlar sodir buldi. Bu esa fan va san'at rivojida muxim axdmiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrlarda paydo buldi. Xalqning turmushi xulq va odatlari, yutuq va maglubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topib bordi. Xar bir davrda mavjud bulgan ana shunday san'at va san'atkorlar xayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol topdirib bordi, ularni tengliq ozodliq birodarlik va yorqin kelajakka intilish yo'lidagi kurashga da'vat etdi.

Arxeologik qazish ishlari natijasida Surxon voxasidagi Yumaloq tepa tubidan topilgan Yog'och o'ymakorligi topilmalari mazkur joylarda bir, bir yarim ming yil muqaddam san'atning bu turini yaxshigina rivoj topganligini olimlarimiz o'z izlanishlarining maxsuli sifatida isbot etib berishdi. Xali-xano'z bunday noyob topilmalar nafaqat Surxon voxasida, balki

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Farg'ona vodiysidagi Sux va boshqa «shli bo'lgan san'at asarlari topilmada. Chingizxon bosqinchiligi tufayli X asrga kelib madaniy xayot izdan chiqdi. O'rta Osiyodagi Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx va Mavr kabi bir qator shaxarlar Chingizxon boshchilik qilgan mo'g'il bosqinchilari tomonidan ostin-ustin qilib tashlandi.

Bu vayrongarchiliklarga XIV asrning ikkinchi yarmida oqsoq Jaxongir Amir Temur O'rta Osiyo xalqlarini birlashtirish orkali chek qo'ydi va xalqimizning madaniyati, san'ati, shu jumladan, Yog'och o'ymakorligining rivojiga o'zi qurdirgan obidalari, asoriatiqalari bilan o'z xissasini qo'shdi. Samarqandga yirik-yirik san'atkorlar, shoiru-ulamolarni, xunarmandu-ustalarni tuplab ko'plab jom'e masjidleri, madrasalar, xonaqolar, saroylar va boshqa ulkan inshootlar qurdirdi. Amir Temur vafotidan so'ng Temuriylar O'rtasida bulgan o'zaro to'qnashuvlar tufayli madaniyat rivojiga salbiy ta'sirini utkazdi.

XVI asrda arxitektura inshootlarining kurinishi yanada takomillashdi, ko'plab jamoat binolari, karvonsaroylar, ko'priq sardoba, shaxarlarda xammom, tim va bopha savdo rastalari qurila boshlandi. Monumental binolarning tarxi, qiyofalariga o'zgartirishlar kiritiddi, xunarmandlarning artellari vujudga keddi. Jom'e masjidleri saroy tipida serxasham kqilib kurildi, go'zar va max,allalardagi masjillar qishlik va yozlik qilib qurilib, katta

ayvonlar o'yma ustunli va eshiklari xam o'yma bezaklar bilan bezatildi.

XVII asrga kelib O'rta Osiyoda avj olgan o'zaro feodal nizo va urushlar Eronning Xivaga qilgan xujumi va boshqalar arxitektura va badiiy xunarmandchilikka salbiy ta'sir kursatdi. musavvir va xunarmandlar Xindistonga, Boburiylar saroyiga ketishga majbur buldilar. XVIII asr oxirlariga kelib me'morchidik va amaliy bezak san'ati rivojlana boshladi. Saroy qURilishlarIda xalq me'morchiligi kompozitsiya uslublaridan foydalanib, ich xobli, xovo'z, ko'p ustunli ayvon, sinchli imoratlar durila boshladi.

Asrimizga qadar san'at asarlari turli qirginbarot tufayli vayronalar ostida dolgan bulsa, asrimizda "qizil kulanka" ostida qoldi. Xalqimizning o'qimishli, bilimdon, ziyoli farzandlarini turli sabablarni rukach qilib katag'on qilishdi, Xunarmand ustalarni esa shaxsiy boylik orttirishda ayblab faoliyatlari tuxtatib quyildi. Biroq xalqimizning fidoyi farzandlaridan ijodkor ustalar usta Shirin Murodov, Mirxamid Yunusov, Shamsiddin G'ofurov, Yunus Ali Musaev, Usmon Ikromov, Quli Jalilov, Sulaymon Xo'jaev, Xaydar Najmiddinov, Toshpo'lat Arslonkulov, Maqsud qosimob, Maxmud Usmonov, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Maxmud Oblaqulov, Abdulla Boltaev, Qodirjon Xaydarov, Ota Polvonov, Abdurazzoq Abduraxmonov

va boiha bir qatorlari o'z xunar sirlarini maktabda va maktabdan tadhari muassasalarda yoshlarga urgatishni yulga quydilar, Keyinchalik esa o'z uslubi, yunalishiga ega bulgan Xiva, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Qo'qon kabi yirik Yog'och o'ymakorlik maktablari rivoj topdi. Xiva Yog'och o'ymakorligining rivojida Ota Polvonov va Sapo Boqbekovlarning ijodiy faoliyati aloxida urin tutadi. Bu maktab o'ymakorligi boiha maktablarga qaraganda o'yma naqshlarning maydaligi, zaminining kamligi, novdalarning zichligi, badiiy to'zilishi jixatidan uynoqiligi, ya'ni novdalarning spiralsimonligi aloxida axamiyat kasb etadi. Samarqand Yog'och o'ymakorligi maktabida esa o'ymalarning maydaligi, naqsh namunasining murakkabligi, usimliksimon girix; va gulli girix naqshlarning ko'p ishlatilishi bilan xamda o'yma yo'zasining ranglanishi bilan ajralib turadi. Ijodkor ustalar Abduxofiz Jalilov, Asatilla, Nasrulla, Nurali Nazrullaevlardir.

Toshkent o'ymakorligi maktabining yirik namoyondalaridan Sulaymon Xo'jaev, Maqsud Kasimov va Ortiq Fayzullaevlardir. Toshkent maktabining boshqa maktablardan farqi shundaki, o'ymasining ko'p qavatligi, O'rtacha chuqurlikda uyilib, islimiy, geometrik ramziy naqshlar ko'proq ishlatiladi. Yirik ustalardan Xaydar Najmiddinov va Qodirjon Xaydarovlardir. Bu maktab o'ymakorligining maxobatlilik, yirikligi, o'ymalarini chuqurligi

va ko'p qavatlilik bilan farklanib turadi. Sulaymon Xo'jaev 1866 yili Toshkentdagi So'zukota maxallasida yashovchi usta va duradgor Nasrulloxuja oilasida dunyoga keldi. Yoshlik davrida Sulaymon otasiga yordam berar, lekin kunglida Yog'och o'ymakorligini urganishga bulgan istak tobora kuchayib borardi. U 17 yoshida usta Iskandar Mirzayokubov ustaxonasida, so'ngra 1891 yildan esa usha davrdagi Yog'och o'ymakorligining pargori I ustalaridan biri Toshpulat Ayubxujaevga shogird tushib Yog'och o'ymakorligining sir-asrorlarini urgandi. "Sulaymon ustozini xurmat qilar, qiyinchshshklarni sabr-chidam xamda uta mexnatsevarligi bilan engil, xaqiqiy usta bulishga astoydil x,arakat qilardi. Keksa ustoz Toshpulat Ayubxujaev vafot etgach, uning san'atini davom ettirdi. Ustozdan estalik bulib Qolgan asboblari yordamida Sulaymon o'zi mustaqil juda ko'p duradgorlik ishlari derazalar, eshiklar, darpardalar yasadi" (S.S.Bulatov "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati", T,"Mexnat",1991,230-bet.).

Usta S.Xujaev 1913 yilda Sankt-Peterburg shazfida bulib utgan Butunrossiya kasblari kurgazmasida naqshlangan kursichasi va kush qafasi bilan ishtirok etib, ana shu ajoyib ishlari uchun "Za poleznie trudo`" bronza medali va diplom bilan taedirlandi. Bundan taphari S.Xujaev juda ko'plab kurgazmalarda o'zining ijod namunalari bilan ishtirok etdi. 1923 yilda Rossiya qishloq

xujaligi xunarmandchilik kurgazmasida, 1927 yilda xalklar san'ati kurgazmasida katnashib 1-darajali diplom bilan takdirlandi. 1937 yilda Parijda bulib utgan san'at va texnika kurgazmasida qatnashib yuksak baxr oldi.

Usta Sulaymon Xujaev O'zbekiston xalq ustalari ichida birinchi bulib 3932 yilda Mexnat Qaxramoni unvonini o,g'di. Yog'och o'ymakorligining Toshkent maktabi namoyondalaryadan biri, pargori ustasi S.Xujaev 81 yoshida 1947 yilda vafot etdi. atoqli naqqosh R.Najmiddinov oilasida dunyoga keldi. U dastlabki Yog'och o'ymakorligi san'atini otasidan urgandi. R.Qodirjondagi bolalikdan san'atga bulgan nshtiyoq asta-sekin unga Yog'och o'ymakorligi sir-asrorlarini qunt bilan urganishiga, sabr-tokqatli bulishga urgatdi. U o'zi mustaqil ravishda uy-ro'zgor buyumlari, qutichalar, stol, kursi va xontaxtalarni nafis va bejirim qilib bezab el e'tiboriga tushdi. Q. Xaydarov dastlab 1923 yilda Moskvada xalq xujaligi kurgazmasida xizmat qildi. 1925-29 yillarda Qo'qondagi Narimonov nomidagi internatda tugarak rax,bari, 1929-31 yillarda yosh duradgorlar tugaragiga boshchilik qildi. 1931-33 yillarda uqishini davom ettirdi. 1933-54 yillarda "Yangi ma'dan" artelida duradgor, Yog'och o'ymakori va 1954-57 yillarda esa qukrn mo'zeyida ta'mirlovchi bulib ishladi. U o'zining faoliyati davomida ko'plab eshiq ustun, kursi, xontaxta, kugicha va boppqa turli buyumlarni Yog'och o'ymakorligi bilan



go'zal va jozibador qilib bezab shuxrat qozondi. Bugungi kunda Qodirjon Xaydarov qurdirgan Qo'qon tarixi mo'zeyidagi kravat, Toshkentdagi Tarix (avvalgi Lenin markaziy mo'zeyining Toshkent filiali) mo'zeyining eshigi, Xalklar Dustligi saroyining eshigi va boihalar uning o'ymakorlik san'ati an'analarini yangi motivlar bilan boyitganini kursatdi. Qodirjon Xaydarov 1963 yildan O'zbekiston Xalq rassomi, 1970 yili Respublika Xamza mukofoti sovrindori, bir nechta ordenlar sox;ibi buldi. Yog'och o'ymakorligining islimiy va pargori ustasi, ajoyib san'at soxibi 1q.Xaydarov qutqon shaxrida vafot etdi.

## Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi materiallari. 1997 yil 29 avgust. I chaqiriq 9 sessiyasi materiallari. -T., "Xalq so'zi" gaz. 1997 yil 30 avgust. 181 son.
2. "Xalq badiiy xunarmandchilik va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yuli bilan kullab-quvvatlash chora- . . . - —qq«jqqqp gespuolikasi Prezidentining Farmoni. -T., "Toshkent oqshomi" gaz. 1997 yil, 2 aprel, 38 son.
3. A.Abduqodirov "Obidalar jilvasi". -T., "O'zbekiston" 1972 yil, 64 b.
4. N.A.Avedova "Toshkent o'ymakorligi". -T., O'z. Dav. Badiiy adabiyot nashr. 1961 yil, 88 b.
5. I.Azimov "Farg'ona vodiysining arxitektura yodgorliklari". -T., "O'zbekiston", 1986 yil, 71 b
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)